

**DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLARNING
IJTIMOIY-PEDAGOGIK JIHATLARI****Sarsenbayeva Rayhon Maxanbetovna***ISFT instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsenti v.b., p.f.n.**rayhon.sarsenbaeva64@mail.ru; +99890 9889097*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiy-pedagogik jihatlari haqidagi ma'lumotlar berilgan. Xususan, deviatsiyada o'smir xatti-harakatlarining me'yordan chetga chiqishi; deviatsiyaga deviant, huquqbuzarlik (delikvent) va jinoiy xatti-harakatlar; deviant xulq, delinkvent xulq haqidagi ma'lumotlar; o'smirlarda deviant xulq-atvorni keltirib chiqaradigan biologik, psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy omillarning mavjudligi; deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlashning profilaktika va reabilitatsiya shakllari kabilar xususidagi ma'lumotlar ifodalangan.

АННОТАЦИЯ: В данной статье представлена информация о социально-педагогических аспектах работы подростков с девиантным поведением. В частности, девиация – это отклонение поведения подростка от нормы; девиация включает девиантное, делинквентное и преступное поведение; сведения об девиантном поведении, делинквентном поведении; наличие биологических, психологических, социально-педагогических, социально-экономических и моральных факторов, вызывающих девиантное поведение подростков; представлена информация о профилактических и реабилитационных формах работы с детьми с девиантным поведением.

ANNOTATION: This article provides information on the socio-pedagogical aspects of adolescents with deviant behavior. In particular, deviation is a deviation of adolescent behavior from the norm; deviation includes deviant, delinquent (delinquent) and criminal behavior; information about deviant behavior, delinquent behavior; the presence of biological, psychological, socio-pedagogical, socio-economic and moral factors that cause deviant behavior in adolescents; information on preventive and rehabilitation forms of working with children with deviant behavior, etc.

TAYANCH SO'ZLAR: Deviant xulq-atvorli o'smirlar; uning ijtimoiy-pedagogik jihatlari; deviatsiyada o'smir xatti-harakatlarining me'yordan chetga chiqishi; deviatsiyaga deviant xulq, huquqbuzarlik (delikvent) va jinoiy xatti-harakatlar; deviant xulq va delinkvent xulq haqidagi ma'lumotlar; o'smirlarda deviant xulq-atvorni keltirib chiqaradigan biologik, psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy omillar; deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlash; uning profilaktika va reabilitatsiya shakllari.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Подростки с девиантным поведением; его социально-педагогические аспекты; отклонение поведения подростков от нормы при девиации; девиантное поведение, делинквентное и криминальное поведение при девиации; сведения об девиантном поведении и делинквентном поведении; биологические, психологические, социально-педагогические, социально-экономические и

нравственные факторы, обуславливающие девиантное поведение подростков; работа с детьми с девиантным поведением; формы ее профилактики и реабилитации.

KEYWORDS: *Adolescents with deviant behavior; its socio-pedagogical aspects; deviation of adolescent behavior from the norm in deviation; deviant behavior, delinquency and criminal behavior in deviation; information about deviant behavior and delinquent behavior; biological, psychological, socio-pedagogical, socio-economic and moral factors that cause deviant behavior in adolescents; work with children with deviant behavior; its forms of prevention and rehabilitation.*

Biz bilamizki, og‘ishlar o‘smirlik davrida sodir bo‘ladi. O‘smirlik - yoshlik davrlarining eng murakkab davri. Uni “o‘tish davri” deb ham atashadi, chunki bu davrda o‘smirlikdan balog‘at yoshiga o‘tish sodir bo‘ladi va bu jarayon o‘smir rivojlanishining barcha jabhalariga – anatomik va fiziologik tuzilishiga, aqliy, axloqiy rivojlanishiga ta’sir qiladi.

O‘smirlik (11-16) yoshida bolalarning hayot sharoitlari va faoliyati ancha o‘zgaradi, ruhiyatining qayta qurilishi ro‘y beradi. Tengqurlari bilan muomala qilishning yangi shakllari paydo bo‘ladi. Jamoada o‘smirning ijtimoiy maqomida o‘zgarishlar ro‘y beradi, ota-onalartarbiyasi va ustozlar tomonidan ularga talablar kuchayadi.⁴

Umumiy o‘rta (o‘n bir yillik ta’lim), o‘rta maxsus (to‘qqiz yillik asosiy o‘rta ta’lim va ikki yillik o‘rta maxsus ta’lim), boshlang‘ich kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik asosiy o‘rta ta’lim va ikki yillik boshlang‘ich kasb-hunar ta’limi) olgan shaxslar), shuningdek ushbu Qonun kuchga kirgunga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta ta’lim va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) olgan shaxslar huquqqa egadirlar. oliy ma’lumot olish huquqiga ega.⁵

Jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va me’yorlaridan chetga chiqqan o‘smirlar “qiyin o‘smirlar” yoki “tarbiyasi og‘ir o‘smirlar” deb ataladi. "Tarbiyasi og‘ir" - pedagogik ta’sirga qarshilik ko‘rsatish. Qiyin tarbiya, bolaning qabul qilingan me’yor va qoidalarga amal qilmasligi fanda og‘ish hodisasi orqali o‘rganiladi.

Deviatsiya (og‘ish) bolalarga ham, uning atrofidagi dunyoga ham xos bo‘lgan o‘zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biridir. Ijtimoiy sohada o‘zgaruvchanlik faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning boshqalar bilan o‘zaro munosabatini aks ettiruvchi xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, deviatsiyada o‘smir xatti-harakatlari me’yordan chetga chiqadi.

O‘smirning xulq-atvori uning ijtimoiylashuvi, rivojlanishi, ehtiyojlariga mos keladigan mikrojamiyati bilan o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi. O‘smirning atrofidagilar u yoki bu xususiyatiga o‘z vaqtida e’tibor qaratishsa, uning xatti-harakati doimo me’yorda bo‘ladi.

⁴ **R.M.Sarsenbayeva.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ijtimoiy pedagogning tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan ishlar texnologiyasi. "Ta’limni rivojlantirish strategiyasi: qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot" mavzusida **Xalqaro ilmiy-amaliy** konferensiya materiallari 27-28-sentyabr, 2024-yil. Jizzax, O‘zbekiston

⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risi”dagi Qonuni. O‘RQ-637 son 23.09.2020.

Bu me'yordan chetga chiqqan xulq-atvor jamiyat tomonidan o'smir shaxsi xususiyatlarini hisobga olmaslik oqibatidir, degan fikr tug'iladi.

Ko'rinib turibdiki, deviant xatti-harakatlar ijtimoiy dezadaptatsiya⁶ning ko'rinishlaridan biridir. O'smirlarning dezadaptatsiyasi haqida gapirganda, ushbu jarayonga moyil bo'lgan o'smirlarning toifalarini aniqlash kerak:

1. Maktab yoshidagi, maktabga bormaydigan o'smirlar;
2. Yetim qolgan o'smirlar;
3. Ijtimoiy etimlar. Ular to'g'ri ovqatlanmaydilar, jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lishadi;
4. Giyohvand moddalar va zaharli moddalarni iste'mol qiladigan o'smirlar;
5. Jinsiy intizomsiz o'smirlar;
6. Noqonuniy xatti-harakatlar sodir etgan o'smirlar.

Deviant xatti-xarakat - bu kichik ijtimoiy munosabatlar (oilalar, maktab) hamda xarakter, jinsiy va yosh xususiyatlari jihatidan yaqin kichik ijtimoiy guruhlariga xos ijtimoiy me'yorlardan, xatti-xarakatlar va qoidalaridan og'ish, chekinishning bir turidir. Ya'ni bu turdagi harakatni intizomsizlik deb ham atash mumkin. Agressiya, chaqiriq, ishda va mehnat faoliyatida o'zboshimchalikka yo'l qo'yish, bolalar va o'smirlarning ichkilikka berilishi, daydib yurishlari, oliftagarchilik qilishlari, assotsial xarakatlarga berilishi kabilar deviant xarakatlarning asosiy ko'rinishlaridir. Ma'lum vaziyatlarda bolalar va o'smirlarning shu kabi xatti-xarakatlarni namoyon etishi deviant xarakatlarning tipik xususiyatidir.⁷

Deviatsiyaga deviant, huquqbuzarlik (delikvent) va jinoiy xatti-harakatlar kiradi.

Deviant xulq – bu mikroijtimoiy munosabatlar (oilalar, qo'ni-qo'shni, qarindoshlar, maktab munosabatlari) va kichik ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan ijtimoiy normalar va xatti-harakatlar qoidalarini buzish bilan bog'liq deviant xatti-harakatlar turlaridan biri. Bu xatti-harakatni "intizomsiz" deb ham atash mumkin. Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo'lishiga o'z-o'zini reklama qilish, tajovuzkorlik, darsdan qochish va dars qoldirmaslik, o'smirlar va yoshlar o'rtasida ichkilikbozlik va giyohvandlik hamda ular bilan bog'liq g'ayri ijtimoiy xatti-harakatlar, jinsiy xarakterdagi axloqsiz xatti-harakatlar, o'z joniga qasd qilishga urinishlar misol bo'la oladi.

Delikventlik (lotincha delingens — jinoiy harakatni amalga oshiruvchi huquq buzar) — militsiya ro'yxatida turadigan yoki jinoiy jazoga olib kelishi mumkin bo'lgan doimiy qonun buzarliklarni muntazam amalga oshiruvchi tarbiyasi qiyin o'smirning qonunga xilof harakatlarini ko'rsatish.⁸

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-sonli Farmonining 1-ilovasiga muvofiq “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” 2030-yilgacha

⁶ **Dezadaptatsiya** (noto'g'ri moslashish) – bu shaxsning barqaror ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolish, muammolarni engish va o'zgaruvchan muhitga moslasha olmasligi.

⁷ **Vohidova N.X., Mirzayeva F.O.** “Ijtimoiy pedagogika” (darslik). – T.: Sano-standard, 2022. – 226 b.

⁸ **Mavlonova R.A.** Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2019

erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarining I-bandida: “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” dagi “Ta’lim tizimi islohotlari” 1.1. qismining “Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish”da quyidagilar belgilab berildi:

1). 1 000 nafar tarbiyachi va o‘qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.


2). Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining o‘rtacha ish haqini 2 barobar oshirish.

3). 500 ming nafar maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining malakasini uzliksiz oshirish.

4). Ehtiyoj yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni to‘liq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish”⁹.

Delinkvent xulq-atvor, deviant xulq-atvordan farqli o‘laroq, o‘smirlar va o‘spirinlarning takroriy antisotsial (g‘ayri ijtimoiy) xatti-harakatlari sifatida tavsiflanadi. Bu harakatlar huquqiy normalarni buzuvchi, lekin ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lmaydigan muayyan harakatlar majmuini tashkil etadi.

DELIKVENT XULQ-ATVOR TURLARI



Delikvent xulq-atvor (huquqbuzarliklar) ning quyidagi turlari mavjud:

— **tajovuzkor** (agressiv) xulq-atvor, jumladan, haqorat, sadistik (sadizm) harakatlar, o‘t qo‘yish va boshqalar;

— **g‘arazli** xatti-harakatlar mayda o‘g‘irlik, o‘zlashtirish, avtomashinalarga zarar yetkazish va moddiy manfaat olish maqsadida boshqa mulkiy tajovuzlar;

— **dori vositalar** (giyohvand moddalar) ni yetishtirish va tarqatishda ishtirok etish.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni

Delikvent (huquqbuzarlik) nafaqat tashqi, balki ichkarida ham namoyon bo‘ladi. Bunday holda, qadriyatlarning o‘zgarishi sodir bo‘ladi, bu o‘smirning ichki tartibga solish tizimining zaiflashishiga olib keladi.

Jinoiy xulq - bu jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladigan, ma’lum yoshga to‘lgandan keyin jinoyat ishini qo‘zg‘atuvchi va Jinoyat kodeksining muayyan moddalarida nazarda tutilgan huquqqa zid harakat.

Salbiy turdagi og‘ishlar ijtimoiy patologiya (deviatsiya) lar hisoblanadi. Ular orasida alkogolizm, giyohvandlik, fohishalik, o‘z joniga qasd qilish, huquqbuzarlik va jinoyatchilik kiradi. Ular ichki adaptiv tizimni yo‘q qiladi, uning asoslarini buzadi va o‘smirning tanasiga katta zarar etkazadi.

Spirтли ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste’mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilishni tashkil etish sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.¹⁰

O‘smirlarda deviant xulq-atvorning bir necha sabablari bor. Deviant xulq-atvor murakkab va turli omillar bilan izohlanadi. O‘smirlarda deviant xulq-atvorni keltirib chiqaradigan omillar quyidagilardir:

1. Biologik omillar – o‘smir organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anotomik xususiyatlarning borligida o‘z ifodasini topadi. Ularga irsiy xususiyatlar, aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko‘rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi, organizmga psixofiziologik zo‘r berilishi, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, turli allergik kasallanishlarga olib keluvchi, ya’ni quvvat manbalari bilan bog‘liq bo‘lgan psixofiziologik xususiyatlar kiradi.

2. Psixologik omillar – o‘smirda psixopatologiya yoki xarakterining akeyentuatsiyasining borligi kiradi. Bu me’yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari, psixopatiya¹¹, nevrosteniya¹² va o‘smirda g‘ayri adekvat¹³ reaksiyalarni paydo qiluvchi

¹⁰ Spirтли ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste’mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi **NIZOM**. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2011-yil 17-yanvardagi 18-son [buyrug‘iga](#) ILOVA. Toshkent sh., 2011-yil 17-yanvar, 18-son

¹¹ **Psixopatiya** tushunchasi ba’zan [sostiopatiya](#) atamasi bilan [sinonim](#) sifatida qabul qilinadi va doimiy [antisotsial xatti-harakatlar](#), buzilgan [empatiya](#) va pushaymonlik, shartakilik yoki [egoistik xususiyatlar](#) bilan tavsiflanadi

¹² **Nevrasteniya** (nevr — asab va yun. astheneia — darmonsizlik), astenik nevroz, asab toliqishi, asab ojizligi — asab tizimining uzoq vaqt o‘ta toliqishi, ya’ni ruhiy iztirob natijasida kelib chiqadigan kasallik, nevrozlarning bir turi N.ga intoksikatsiya (ko‘pincha alkogoldan), infeksiya, o‘ta toliqish, to‘yib ovqatlanmaslik, bosh miya shikastlanishi, shuningdek, tez-tez asabga tegadigan va darmonni quritadigan vaziyatlar, kechasi kam uxlash va boshqalar sabab bo‘ladi.


¹³ **Adekvat** (lotincha adaequatus — tenglashgan, mos, aynan bir xil, o‘xshash, teng keladigan, muvofiq) — bilish nazariyasida narsa va hodisalarning xossalari va aloqalarini ularning ob’yektiv mazmuniga to‘g‘ri

boshqa omillarda namoyon bo‘ladi. Yorqin namoyon bo‘lgan psixopatiyaga (tentaklikka) ega o‘smirlar psixiatrlar yordamiga muhtoj bo‘ladilar.

Ruhiy me‘yorning eng keskin varianti hisoblanmish aksentuatsiya¹⁴ (urg‘u)ga ega bo‘lgan o‘smirlar psixologik ta‘sirlar uchun nihoyatda qaltis hisoblanadilar va ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiya¹⁵ga ehtiyoj sezadilar.

O‘smir rivojlanishining har bir davrida shaxsiyat va xarakterning ba‘zi ruhiy hislatlari shakllanadi. O‘smirda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: u o‘zi yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki bu muhitga ko‘nikib ketadi. Agar oilada o‘smir otasini tomonidan yetarli darajada mehr his qilmasa, u holda o‘smirning himoya vositasi vazifasini “**begonalashuv**” bajaradi. Bu begonalashuv asabiy reaksiyalar, atrofdagilar bilan munosabatlarining buzilishi, emotsional sovuqlik, psixik rivojlanishning to‘xtab qolishi kabi turli ruhiy patologiya¹⁶larda namoyon bo‘ladi.

Voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi omillar:



keladigan, aniq va mos qilib olish. Inson ongi ob‘ektiv borliqni ijtimoiy amaliyot asosida adekvat aks ettira boradi (qarang Haqiqat).

¹⁴ **Xarakterning akstentuatsiyasi** (xarakterning urg‘usi) – bu ruhiy me‘yorning ekstremal versiyasini ifodalovchi individual xarakter xususiyatlari va ularning kombinatsiyalarining haddan tashqari ifodalanishi.

¹⁵ **Reabilitatsiya** (lot. rehabilitatio — tiklash) (tibbiyotda) — organizmning buzilgan funksiyasini va bemorlar hamda nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmui.

¹⁶ **Patologiya** (yun. pathos — kasallik va ..logiya) — nazariy va klinik [tibbiyot](#) sohasi; kasallikning paydo bo‘lish sababi, [rivojlanish](#) qonuniyati, kechishi va oqibatini o‘rganadi. Patologik jarayonlarning umumiy qonuniyatlari va sabablari umumiy Patologiyada, ayrim a‘zo va sistemalar kasalliklari xususiy Patologiyada o‘rganiladi. Patologiya [patologik anatomiya](#) va patologik fiziologiyaga bo‘linadi.

O‘smirlarga xos bo‘lgan rad etish, qarshi chiqish kabi xislatlar, odatda, bir-biriga emotsional bog‘liq bo‘lgan oilaviy munosabatlarning oqibati hisoblanadi. O‘smirning axlohiy qadriyatlari tizimi shakllanmasligi oqibatida uning qiziqishlari g‘arazli tavsif kasb eta boshlaydi. Bunday o‘smirlarga infantilizm¹⁷, ya’ni ko‘ngilochar hikoyalar xos bo‘ladi.

3. Ijtimoiy-pedagogik omillar – maktab, oila va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo‘lib, uning asosida o‘smirning yoshlik chog‘ida salbiy tajriba to‘plashi bilan bog‘liq bo‘lgan, uning erta ijtimoiylashuvidan og‘ishlarga olib keluvchi yosh, jinsiy va individual xususiyatlar yotadi. Bunday o‘smirlar, avvalambor, maktabda yomon tayyorlanishgan bo‘lib, uy vazifalariga mas’uliyatsizlik bilan qarashadi, maktab baholariga befarqliklarini bildirishadi. Bu esa, ularning o‘quv dezadaptatsiyasidan dalolat beradi.

Maktab o‘quvchisining dezadaptatsiyasi o‘z rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

— o‘quv dekompensatsiya¹⁸ — o‘smir bir yoki bir nechta fanlarni o‘zlashtirishida qiyinchiliklar paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadigan holat;

— maktab dezadaptatsiyasi — o‘qish jarayonidagi qiyinchiliklarda, o‘quvchilar o‘z sinfdoshlari bilan nizolashishda namoyon bo‘ladigan, xulq-atvor buzilishi bilan tavsiflanadigan o‘smir holati;

— ijtimoiy dezadaptatsiya — bu holatda o‘qishga, maktab jamoasiga qiziqish batamom so‘nadi, giyohvandlik va spirtli ichimliklarga bo‘lgan qiziqish kuchayadi;

— bo‘sh vaqtini o‘tkazish muhitining kriminallashuvi¹⁹.

O‘smirning psixosjtimoiy rivojidagi me’yordan og‘ishning yana bir muhim omili — noxush oila hisoblanadi. Voyaga yetmagan o‘smirlarda asotsial²⁰ xulq-atvorni shakllanishiga olib keladigan oilaviy munosabatlar turlarini ajratib ko‘rsatish ham muhim ahamiyatga ega. Ularga quyidagilar kiradi:²¹

✓ o‘zida bir tomondan, o‘smir xohishlariga erk berish, boshqa tomondan esa, o‘smirni nizoli vaziyatlarga undashni yoki oilada ikki axloq: oila uchun yurish-turish qoidalari, jamiyat uchun umuman boshqa qoidalarini mujassam etgan tarbiyaviy munosabatlar turi;

✓ to‘liqsiz oiladagi o‘smir va ota-onalarining uzoq muddat ayri yashashlari sharoitida tarbiyaviy ta’sirlarning beqapop turi;

¹⁷ **Infantilizm** – kattalarda ilk bolalik davriga xos bo‘lgan morfologik, fiziologik va ruhiy holatlarning saqlanib qolishi bilan ifodalanadigan klinik sindrom (ko‘ngilochar hikoyalar).

¹⁸ **Dekompensatsiya** (de... va lot. compensatio — baravarlash) — kasallik tufayli ro‘y bergan o‘zgarishga organizm moslashuvining, ya’ni kom-pensatsiyaning buzilishi sababli bi-ror a’zo yoki a’zolar sistemasi yoxud butun organizm faoliyatining izdan chiqishi.

¹⁹ **Kriminallashuv** – jamiyatdagi kriminallashuv jarayonlari kishilar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ularning huquqiy ongi buzilishiga sabab bo‘ladi. U bir-birini istisno etuvchi ikki jihat – huquqqa ijobiy va salbiy munosabatlarning chatishuvi bilan tavsiflanadi.

²⁰ **Asotsial** – jamiyatdagi, jamoat hayotidagi odob-axloq me’yori va qonun-qoidalariga mos kelmaydigan, anti-ijtimoiy inson axloqi, xulq-atvori haqida;

²¹ **Mavlonova R.A.** Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2019

✓ spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'moli, g'ayriaxloqiy hayot tarzi, otalarning jinoiy xulq-atvori bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar turi.

Shafqatsiz muomala (haqorat) deb o'smirlar g'amxo'rlik yoki vasiylik qiluvchilar tomonidan unga zarar keltiruvchi harakatlarga aytiladi.


Oila va uning ta'sirini taxdid qilish shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning ruhiy-ijtimoiy rivojlanishiga aksariyat o'smirlarda ijtimoiylashuv shartlarining buzilishi sabab bo'lar ekan. Ularning bir qismi devyatsiya holatiga olib boruvchi turli jismoniy va ruhiy havflar ostida yashashadi, boshqalari esa jinoiy faoliyatlarga aralashib qolishgan.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar – ijtimoiy tengsizlik jamiyatning boylar va kambag'al sinflarga ajralishi, aholi ko'p qismining kambag'allashib ketishi, ishsizlik inflyatsiya, daromad olish usullarining cheklab qo'yilishidan iborat.

5. Axloqiy omillar – bir tomondan, zamonaviy jamiyatning past axloqiy darajasida va qadriyatlarining yo'qolib ketishida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, jamiyatda deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishiga befarq bo'lishida o'z aksini topadi.

Ilmiy nazariy va amaliyotda deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlashning ikki asosiy: profilaktika va reabilitatsiya shakllari mavjud.

DELIKVENT XULQ-ATVORNING SHAKLLARI



Profilaktika – o'smirlar xulq-atvorida ijtimoiy me'yorlardan og'ishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy va davlat tadbirlarining majmuasidir. "Profilaktika" atamasi o'zi noxush oqibatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish ma'nosini bildiradi.

Ijtimoiy og'ishlar turli sabab va holatlardan kelib chiqishini inobatga olgan holda, profilaktik chora-tadbirlarning bir nechta turlarini ko'rsatish mumkin:

- neytrallashtiruvchi;
- o'rnini to'ldiruvchi;
- ijtimoiy og'ishlarga sabab bo'luvchi holatlarni yuzaga kelishidan ogohlantiruvchi;
- bu holatlarni bartaraf etuvchi;
- o'tkaziladigan profilaktika ishlarini nazorat qiluvchi.

Reabilitatsiya²² – keng turdagi vazifalar, elementar ko‘nikmalardan tortib insonning jamiyatda to‘liq integratsiyalashuvigacha bo‘lgan masalalarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida qaralishi mumkin.

Reabilitatsiya ob’ektlari quyidagilar:

1. Ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar.
2. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar, yetim bolalar, xulq-atvorida chetga og‘ish bo‘lgan o‘smirlar.

3. Psixosomatik²³ va neyropsixologik²⁴ sog‘ligi buzilgan va funksional og‘ishlarga ega bolalar:

- surunkali somatik kasalliklar;
- funksional buzilishlar;
- asab-ruhiy hastaliklar;
- aqliy qoloqlik;
- nogironlik.

Reabilitatsiyaning bir qancha turlari mavjud: tibbiy, kasbiy, maishiy ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-pedagogik.²⁵

REABILITATSIYANING TURLARI

Reabilitatsiyaning turlari:

²² **Reabilitatsiya** (lot. rehabilitatio — tiklash) (tibbiyotda) — organizmning buzilgan funksiyasini va bemorlar hamda nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmui.

²³ **Psixosomatika** – bu yunonchadan “ruhiyat va tana” ma’nosini bildiradi: psixologik omillar – shaxslar bilan munosabatlar, bajarilmagan istaklar, bostirilgan his-tuyg‘ular, ichki ziddiyatlar kabi ruhiy holatlarni tanaga salbiy ta’siridir.

²⁴ **Neyropsixologik tuzatish (neyrokorreksiya)** — bu buzilgan [miya](#) funksiyalarini qayta qurish va bola o‘z xatti-harakatlarini mustaqil ravishda o‘rganishi va nazorat qilishi uchun kompensatsiya vositalarini yaratishga qaratilgan maxsus psixologik usullar majmuasi.

²⁵ **Egamberdiyeva N.** Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 234 b.

1. • Tibbiy rehabilitatsiya - o'smir salomatligi;
2. • Kasbiy rehabilitatsiya - o'smir kasb-hunar egallashi;
3. • Maishiy rehabilitatsiya - o'smir yashash sharoiti;
4. • Ijtimoiy-iqtisodiy rehabilitatsiya - moddiy mulklari;
5. • Ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya - ta'lim-tarbiyasi

Tibbiy rehabilitatsiya – bola organizmining u yoki bu yo‘qotilgan funksiyasini o‘rnini to‘ldirish yoki to‘liq va qisman tiklashga qaratilgan bo‘ladi.

Kasbiy rehabilitatsiya – o‘smirni biror-bir kasbga o‘rgatish, u uchun yengillashtirilgan sharoitli va qisqartirilgan ish kuniga ega ish joylarini qidirishdan iborat.

Maishiy rehabilitatsiya – o‘smir uchun me‘yorli yashash sharoitlarini yaratishga qaratiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rehabilitatsiya – deganda esa o‘smir huquq va manfaatlarini himoya qilish, unga tegishli bo‘lgan moddiy mulklar, to‘lovlar bilan ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi.

Ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya – bola hayotiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega shaxsiy hislatlarni, uning jamiyat integratsiyasiga yordam beruvchi faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, ijobiy rollarni, jamiyatda yurish-turish qoidalarini o‘zlashtirishi, kerakli ma‘lumot olishga qaratilgan tarbiyaviy harakterdagi chora-tadbirlardir.

O‘quvchining o‘sishi va tarbiya olishi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi, ijtimoiy foydali mehnat, ijtimoiy ishlar, o‘yin va o‘qish faoliyati, bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanish kabilar o‘quvchilarning hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘quvchilarning xilma xil faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etish, uni shaxs sifatida alohida sifatleri, xarakter xislatlari, odatlarini tarkib toptirishga e‘tibor yaratish tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.²⁶

Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiyasi rehabilitatsion markaz deb nomlanuvchi ixtisoslashgan muassasalarda amalga oshiriladi. Bu muassasalarning vazifalari:

- nazoratsizlik, daydilik profilaktika ishlarini olib borish;

²⁶ **Sarsenbayeva R.M.** Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Moliya-iqtisod”, 2019. – 388 b.

- ota-onasi aybi bilan yoki ekstrimal vaziyat tufayli qiyin hayotiy holatga tushib qolgan bolalarga tibbiy-psixologik yordam ko‘rsatish;
- ijobiy, ijtimoiy xulq-atvor, atrofdagilar bilan muomila qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ota-onasi qaramog‘isiz qolgan bolalarga nisbatan vasiylik funksiyalarini bajarish;
- shaxsning inqirozli ruhiy holatlarini bartaraf etishga yordam beruvchi ruhiy va pedagogik qo‘llab-quvvatlanish;
- oilaga qaytib kelishiga ruxsat berish;
- me‘yorda rivojlanish, ta‘lim olish imkoniyati bilan ta‘minlash;
- ishga joylashtirilishiga g‘amxo‘rlik qilish kabilardan iborat.

Shunday ekan, deviatsiyada o‘smir xatti-harakatlari me‘yordan chetga chiqadi. Deviatsiyaga deviant, huquqbuzarlik (delikvent) va jinoiy xatti-harakatlar kiradi. Deviant xulq, bu mikroijtimoiy munosabatlar, ya‘ni oila, qo‘ni-qo‘shni, qarindoshlar, maktab munosabatlari va kichik ijtimoiy guruhlariga xos bo‘lgan ijtimoiy me‘yorlar va xatti-harakatlar qoidalarini buzish bilan bog‘liq deviant xatti-harakatlar hisoblanadi. Delinkvent xulq-atvor tajovuzkor (agressiv), g‘arazli, dori vositalar, ya‘ni giyohvand moddalarga bo‘linadi. O‘smirlarda deviant xulq-atvorni keltirib chiqaradigan biologik, psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy omillari mavjud. Deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlashning profilaktika va reabilitatsiya shakllari mavjuddir.

Deviant xulq-atvorli o‘smirlar bilan ishlash. Bu yoshning pedagogik-psixologik xususiyatlari tufayli bo‘sh vaqtni o‘tkazishning jamoaviy shakllarini rivojlantirish lozim. Shuni inobatga olish lozimki, deviant xulq-atvorli o‘smirlar asosan intellektual faoliyat bilan emas, balki sport bilan shug‘ullanishga qiziqishadi. Shuning uchun ham, ularning sport to‘garaklariga qatnashishlariga yanada ko‘proq sharoitlar yaratib berish lozim.²⁷

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash mumkinki, avvalo, ijtimoiy pedagogik amaliyotda o‘smirlarga xos bo‘lgan deviatsiya holatini davolashdan oldin, uning kelib chiqish sabablarini o‘rganish hamda uning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish masalalarini hal qilish lozim. Bunday masalalarni faqat oilaga emas, balki butun bir jamoa birgalikda harakat qilishlari kerak bo‘ladi. Ya‘ni, oila, mahalla, ta‘lim muassasasi hamkorligida amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni

²⁷ **R.M.Sarsenbayeva.** Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash yo‘llari. Miasto Przyszości Kielce Jild. 52 (2024). 2024-09-02. /ISSN/2544-980X. <https://miastoprzyszosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4627>. POLSHA xalqaro jurnali. 439-451 B.B

2. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston respublikasi Prezidentining PF 60-sonli Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risi”dagi Qonuni. O‘RQ-637 son 23.09.2020.

4. Spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste’mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi **NIZOM**. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2011-yil 17-yanvardagi 18-son [buyrug‘iga](#) ILOVA. Toshkent sh., 2011-yil 17-yanvar, 18-son

5. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 234 b.

6. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. “Ijtimoiy pedagogika” (darslik). – T.: Sano-standard, 2022. – 226 b.

7. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Moliya-iqtisod”, 2019. – 388 b.

8. R.M.Sarsenbayeva. Umumta’lim maktablarida o‘smir bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. O‘zbekiston, OAK jurnali. Contributions of eastern thinkers to natural sciences (Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali). 2023, jild 03, nashr 11.

9. R.M.Sarsenbayeva. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash yo‘llari. Miasto Przyszłości Kielce Jild. 52 (2024). 2024-09-02. /ISSN/2544-980X. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4627>. POLSHA xalqaro jurnali. 439-451 B.B.

10. R.M.Sarsenbayeva. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ijtimoiy pedagogning tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan ishlar texnologiyasi. "Ta’limni rivojlantirish strategiyasi: qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot" mavzusida **Xalqaro ilmiy-amaliy** konferensiya materiallari 27-28-sentyabr, 2024-yil. Jizzax, O‘zbekiston.